

## JISMONIY HARAKATLAR VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH METODIKASI

**Abduhakimova Shoxista**

*Andijon viloyati, Andijon davlat universiteti talabasi*

**Kalit soʻzlar:** *Jismoniy harakatlar, texnologiya, faoliyat, motorik faoliyat.*

Hozirgi vaqtda mamlakatimizning maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalarni taʼlim olishga boʻlgan huquqini amalga oshirishni taʼminlash, ularning jismoniy, aqliy, maʼnaviy kamolotini saqlash va mustahkamlash asosiy vazifalar sifatida belgilab oʻtilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning sogʻlomlashtirish vazifalari – bu jismoniy tarbiyaning eng asosiy vazifasi boʻlib, bola hayotini muhofaza qilish, uning sogʻligini mustahkamlash, organizmini chiniqtirishni maqsad qiladi. Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalarning har tomonlama rivojlanishi koʻp jihatdan unda tashkil etiladigan mashgʻulotlarning mazmuni, konseptual tuzulishi hamda bolalar tomonidan ijobiy qabul qilinishiga bogʻliq. Bu esa pedagogdan mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda didaktik materiallar ishlab chiqish va joriy qilishni taqozo etadi. Jismoniy harakatlar teatri bir qator sanʼat turlari va jismoniy tarbiya elementlarini uygʻunlashtirish orqali bolalarning eng avvalambor motorik faoliyatini, shuningdek kognitiv, hissiy, estetik rivojlanishini qamrab oladi. Harakatli oʻyinlarni muntazam oʻtkazish bolalarda oʻz harakatlarini boshqarishni rivojlantirishga yordam beradi, ular gavdasini tartibga soladi, yaʼni turli zoʻriqishda harakat qilishga oʻrgatadi. Oʻyinlar bolani juda chaqqonlik, muayyan maqsad va tezkorlik bilan harakat qilishga, qoidalarni bajarish, oʻzini tutish, oʻrtoqlikni qadrlay olishga oʻrgatadi. Hozirgi sharoitda esa texnikaning tezlik bilan rivojlanishi, turmushda avtomatlashtirish va mexanizasiyalashtirishning tobora keng koʻlamda qoʻllanilishi insonning bevosita harakat qilishini ancha-muncha cheklab qoʻydi. Ayniqsa, bu yosh ulgʻayib kelayotgan bolalarda keng uchraydi. Bolalarda faol harakatning cheklanishi bilan organizmdagi barcha aʼzolarning meʼyoriy ishlashi buziladi, chunki ular asosan serharakat sharoitda oʻz funksiyalarini toʻliq bajaradilar. Jismoniy harakatlar teatri bolalarning ijodiy rivojlanishi nuqtai nazaridan pedagogik zarurat hisoblanadi. Bu orqali ular dunyoni badiiy tasavvur etish, his etish va tushunishni namoyish qilishni oʻrganadi. Ijodiy jihatdan bolalar matnni ifodali oʻqib, ijro etib berishni oʻrganadi, sahnalashtirish jarayonida ishtirok etadi, sanʼat asarining mazmunini, gʻoyasini tushunishni, sanʼat turlarini farqlay oladi. Shuningdek, bolalarda jismoniy harakatlar teatri vositasida badiiy-ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Jumladan, "...bolalar turli predmetlardan dekorasiyalar yaratadi, individual va jamoada rol ijro etadi, raqsda harakatlariga jilo bergan holda shaxsiy namuna yaratishni oʻrganadi, gʻoya yaratadi va tatbiq etadi, olamni oʻzgartirishda insonning yaratuvchi rolini anglaydi, buyumlarni ikkilamchi qoʻllashda gʻoyalar taklif etishi mumkin". Jismoniy harakatlar teatrining psixologik nuqtai nazardan tahlili shuni

ko'rsatadiki, bolalarda "Men pozisiya" sini rivojlantiradi va barcha harakatlar, jumladan motorik faoliyatni ham "aqliy tajriba" shaklida amalga oshirish imkoniyatini beradi. Pedagog olim V.V.Davidov o'z tadqiqotlarida bolalardagi yosh va rivojlanish xususiyatlariga muvofiq, maktabgacha yoshdagi bolalarda "Men pozisiya" si kuchli rivojlanayotgan davrga to'g'ri kelishini atroflicha o'rganib chiqqan. Bu davr maktabgacha yoshdagi bolalarda intellektual va ijodiy qobiliyatlar rivojlantirish, kuzatish, kognitiv qiziqishlar ortadi, aloqalarni o'rnatish, bog'liqliklarni aniqlash, xulosalar chiqarish, solishtirish, tasniflash, umumlashtirish qobiliyat, faoliyat va natijalardagi o'zgarishlarni bashorat qilish, fikrni aniq va lo'nda ifodalash bilan tasniflanadi. Shuningdek, bu davrda bolalar harakatni "aqliy tajriba" shaklida amalga oshiradi.

Jismoniy harakatlar vositasida erishiladigan sog'lomlashtirish samarasi bolalarning mazkur jarayon orqali yuzaga keladigan va bola ruhiyatiga yaxshi ta'sir etadigan ijobiy emosional holat bilan uzviy bog'liqdir. Emosional ko'tarinkilik bolalarda barcha uchun umumiy bo'lgan maqsadga erishishga intilishni uyg'otadi va u vazifalarni aniq tushunishda, harakatlarning o'zaro mosligiga, fazoda va murakkab sahnalarda aniq mo'ljal olishda, topshiriqlarni tezlashtirilgan sur'atda bajarilishida ifodalanadi. Bolalarning maqsadga erishishga nisbatan kuchli ishtiyoqi va zavqli intilishi – turli to'siqlarni yengib o'tishga yordam beruvchi irodaning roli oshadi. Jismoniy harakatlar teatri bolalar tomonidan avval egallangan harakat ko'nikmalarini takomillashtirish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash metodi bo'lib xizmat qiladi.

Jismoniy harakatlar bolalarda diqqatni, idrokni rivojlantirish, mavjud tafakkur, tushuncha va mo'ljal olishni aniqlashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi, o'yinlar ijodiy hayol, xotira, topqirlik, fikr yuritish faolligini rivojlantirishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, jismoniy harakatlar teatri bolaning aqliy rivojlanishiga yordam beradi. Bolalarning ruhiy jarayonlarni takomillashtirishda obrazli, emosional metodika katta ahamiyat kasb etadi. U bolalarda qiziqish uyg'otadi, hayol surishda, ularni ijobiy bajarishga undaydi hamda ularda ijodiylikni rivojlanishi uchun qulaylik yaratadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida. T.: 2019-yil 16-dekabr, O'RQ-595-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019-y., 03/19/595/4160-son).
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.: O'zbekiston, 2016.- 56 b.
3. Omonov H.T., Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. – T.: 2007. – B. 41.
4. Ortiqov A.X. Yosh fiziologiyasi va gigiyena (bakalavriat bosqichi kasbiy ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma). – Samarqand, 2010.

5. Oida Yoshi. The Invisible Actor, Bloomsbury Methuen Drama, 2002. (96) ISBN 978-0413696106. – P. 4.

6. Павлов А.К. Компетентностно-ориентированный процесс обучения как часть целостного дидактического процесса: Учебное пособие по педагогике. – Петрозаводск: Изд. центр НИО АНИУ ИДСНИА “МАПИ”, 2021. – С. 14. (62).